

BOSHLANG'ICH SINFLARDA FANLAR INTEGRATSIYASI

*Filologiya fanlari doktori(DSc), professor
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna
Farg'ona davlat universiteti magistranti
Maxmudova Nazokat Qodirali qizi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish yo'llari haqida ma'lumot beriladi. Har bir fanni o'qitishda uning boshqa fanlar bilan aloqasi yoki ularning o'zaro bog'liqlik tomonlarini bolalarga tushuntirish yo'llari o'rgatiladi. Birorta fanni o'rgatishda uning boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham darsning sifatini oshiradi ham o'quvchilar uchun darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlab beradi. Bunda biz faqat nazariya bilan cheklanib qolmay ko'proq amaliyot bilan tushuntirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

KALIT SO'ZLAR. Integratsiya, kompetensiya, nazariya, texnologiya, ijodiy qobiliyat, sintaksis, kollokatsiya, kontekst, anatomiya, kommunikativ kompetensiya.

KIRISH. Ta'lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo'llay olishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ta'limning barcha bosqichlarida yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llab dars o'tish o'quvchilarda ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshiradi. Ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ro'yobga chiqarish, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydi, o'quvchini o'quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi. Bundan ko'rinadiki, yuksak ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazish, ularning ilmiy dunyoqarashini bugungi kun talablari asosida shakllantirish ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardandir.

Leksik kompetensiya deganda shaxsning ma'lum bir tilda so'z boyligining bilishi va tushunishi tushuniladi. Bu nafaqat so'zlarning ma'nosini bilishni, balki ularni turli kontekstlarda to'g'ri ishlata olishni ham o'z ichiga oladi. U so'zlarni tanib olish, so'z birikmalari, kollokatsiya va idiomatik iboralarni o'z ichiga olgan keng jihatlarni qamrab oladi. Leksik kompetensiya grammatika va sintaksisdan tashqariga chiqadi, chunki u samarali muloqotning markaziy elementi sifatida lug'atga qaratilgan. Leksik ko'nikmalarni shakllantirishda belgi-ramziy va semiotik funksiyalarning roli yosh o'quvchilarda mavhumlashtirish va umumlashtirish qo'biliyati bilan belgilanadi.

Leksik mahorat leksik kompetensiya tarkibida ko'rib chiqilishi kerak. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda vazifalardan biri har xil turdagi kompetensiyalarni shakllantirishdir. Ta'limning dastlabki bosqichida u yoki bu ko'nikmalarni sifatli o'zlashtirish kompetensiyalarni shakllantirish uchun mustahkam asosdir.

"Kompetensiya" juda keng tarqalgan. Faoliyat ta'limi kontekstida kompetensiya, R.P.Milrudning so'zlariga ko'ra, "ma'lum bir sohada tashqi dunyo bilan samarali o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyatini ta'minlaydigan va buning uchun zarur bo'lgan vakolatlarga bog'liq bo'lgan murakkab, shaxsiy manba". Olimning so'zlariga ko'ra, kompetensiyalar o'quv dasturining birliklariga aylandi va kompetensiyaning "anatomiyasi"ni tashkil etdi.

Kompetensiya tushunchasini ta'kidlab, olimlar uni umumiy va individual sifatida o'zaro bog'lashadi. Kompetensiya tushunchasi bilim, ko'nikma va faoliyat usullarini o'z ichiga oladi, kompetensiyada - shaxsning xususiyatlari va shakllangan kompetensiyalar asosida bajarilgan faoliyatga shaxsiy munosabati paydo bo'ladi. Biz ta'lim maqsadlariga javob beradigan turli xil vakolatlarni shakllantirish haqida gapiramiz. Boshlang'ich maktabda chet tillarini o'qitish maqsadini nutq faoliyatining asosiy turlarida: tinglash, gapirish, o'qish va yo-zishda boshlang'ich o'quvchining boshlang'ich kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish sifatida belgi-laydi. N.D.Galskova va Z.N.Nikitenko kommunikativ kompetensiya ostida "ma'lumotni tushunish va uzatish uchun chet tilidan moslashuvchan va samarali foydalanish qobiliyatini" tushunadilar. M.N. Vyatyutnev kommunikativ kompetensiyani "insonning ma'lum bir aloqa muhitida harakat qilish qobiliyatiga qarab, nutq xatti-harakatlari dasturlarini tanlash va amalga oshirish sifatida" tushunadi, suhbat oldidan, shuningdek, o'zaro moslashish jarayonida suhbat davomida paydo bo'ladigan mavzular, vazifalar, kommunikativ munosabatlarga qarab vaziyatlarni tasniflash qobiliyati paydo bo'ladi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan bu davrda biz bolalarga bilim berishning yangicha, zamonaviy yo'llaridan foydalanmasak, fanlarni o'zaro bir-birlariga bog'lab keng qamrovli dars o'tmasak hozirgi zamon bolalarini darsga qiziqtirib olish ham muamoga aylanib qolmoqda. Shunday ekan biz o'qituvchilar har kuni har daqiqamizda o'zimizning ustimizda ishlamasak darsdan ko'zlangan natijalarga erisha olmayotganimiz kundek ravshandir. Bundan ko'rinib turibdiki leksik kompetensiya bu bolalarda lug'at boyligini ko'pligi, ulardan komunikativ aloqaga kirishishda unumli foydalana olishimiz tushuniladi. Leksik kompetensiya yani turli tuman so'zlardan foydalanishimiz o'z-o'zida ona tili faniga bilan bog'liqdir. Faqat ona tili fanida emas balki deyarli barcha fanlarni o'qishda, o'rganishda so'zlardan unumli foydalanganimiz uchun o'rganayotgan barcha fanlarimizni ona tili fani bilan integratsiya qila olishimiz mumkin ekan. Masalan matematika, o'qish, tasviriy san'at, texnologiya, musiqa, san'at, tabiiy fan va shu kabi boshqa fanlar shular jumlasidandir. O'qitishning bunday usuli

nafaqat bolalarning bilimni oshiribgina qolmay balki jlnarning dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, lug'at biyligini oshiradi, so'zlarning boshqa yangi ma'nolarini bilishga undaydi.

Integratsiya- bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan. Integrasiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Ulug' didaktik Yan Amos Komenskiy ta'kidlashicha: "Bir-biri bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa, xuddi shunday holda o'rganilishi kerak". Fanlararo bog'liqlik g'oyasiga keyinchalik juda ko'p pedagoglar yondoshib, uni rivojlanishi va umumlashtirilishiga hissa qo'shdilar. D.Lokk g'oyasiga ko'ra: "Ta'lim mazmunining aniqlanishida bir fan boshqa fanlar elementlari va faktlari bilan to'ldirilishi kerak". Pestalossi bir fanning boshqa bir fandan uzoqlashuvi hatto xavfliligini ta'kidlaydi. Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiy bilimlarni o'z ichiga olgan. 10-12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. AQSH o'rta maktablarining katta sinflarida o'z ichiga fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik, poletalogiya va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi "Yerni o'rganish" fani kiritilgan. Chexoslovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan "Fuqaro tarbiyasi" deb nomlangan kurs katta sinflarda kiritilgan. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich ta'limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi.

Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko'rsatib beradilar: o'quv predmetlarining chegaralangan soni olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin. Juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga bo'linib o'qitishni talab qiladiganga o'xshaydi. Lekin o'qish va matematikani o'qitishning an'anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o'qish fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo'yicha materiallarni oladi. Matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni o'z

ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko'nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatlarini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqelik hodisalarining bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va ematsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog.so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o'rnatish ta'limga integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslarga tushunchalarga ko'p marotaba qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyasiga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalashgan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. Masalan, "qish", "sovuq", "bo'ron" kabi tushunchalar o'qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san'at darslarida ko'rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilish boshqa o'quv darslarida o'zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalashgan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo'lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o'ziga xos o'tishi metodikasiga ega bo'ladi.

XULOSA. Mazkur maqolada leksik kompetensiyani rivojlantirishda fanlar integratsiyasining nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fanini boshqa o'quv fanlari bilan integratsiyalash o'quvchilarda lug'aviy birliklarni ongli o'zlashtirish, ularni turli nutqiy vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llash hamda so'z ma'nolarini kontekst asosida anglash ko'nikmalarini samarali shakllantiradi.

Shunday ekan integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki ularning mantiqiy fikrlashi, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati hamda kommunikativ faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fanlararo bog'liqlik asosida berilgan topshiriqlar bilimlarning parchalanib ketishini oldini olib, ularning yaxlit tizim sifatida shakllanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, olib borilgan ishlari natijalari integratsiyalashgan darslarda qo'llanilgan interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va matn ustida ishlash usullari leksik kompetensiya ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshganini tasdiqladi. Bu esa integratsion yondashuvning metodik jihatdan samarador ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, leksik kompetensiyani rivojlantirishda fanlar integratsiyasidan foydalanish boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib, u o'quvchilarda nutqiy, intellektual va kommunikativ kompetensiyalarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuvni ta'lim amaliyotiga tizimli ravishda joriy etish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan zarurat sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.
2. N. Norqobilova. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat ta'lim standartlari (Boshlang'ich ta'lim). – Toshkent, 2021.
6. M. Ochilov. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. J. Jalolov. Til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
8. L. S. Vygotsky. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986.
9. Noam Chomsky. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
10. Dell Hymes. On communicative competence // Sociolinguistics. – 1972.